



BADIIY TARJIMADA LISONIY TRANSFORMATSIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma'rufjon Yo'ldoshev

filologiya fanlari doktori, professor

marufcany@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5239-4804

Annotatsiya

Lisoniy transformatsiya yoki lingvotransformatsiya atamasi tilshunoslikda soʻzlar, iboralar yoki gaplarning semantik, grammatik yoki uslubiy jihatdan oʻzgarishi, boshqa tilga tarjima qilinishi yoki muayyan maqsadlarga moslashtirilishi jarayonlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu jarayon tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, lingvopragmatika, lingvopoetika va boshqa tilshunoslikka oid sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar:

Lisoniy transformatsiya, lingvotransformatsiya, lingvotransformatsiya turlari, badiiy asar, tarjima.

Abstract. The term linguistic transformation or linguotransformation is used in linguistics to describe the processes of semantic, grammatical, or stylistic changes in words, phrases, or sentences, their translation into another language, or their adaptation for specific purposes. This process holds significant importance in fields such as translation studies, linguistic and cultural studies, psycholinguistics, linguistic pragmatics, linguistic poetics, and other areas of linguistics.

Keywords: Linguistic transformation, linguotransformation, types of linguotransformation, literary work, translation.

Transformasiya koʻplab tadqiqot sohasida faol qoʻllanayotgan atamalardan biri hisoblanadi. Mazkur atama u yoki bu unurning muayyan maqsad bilan oʻzgarishga uchrashi, almashishi, qoʻshilishi yoxud qisqarishi maʼnosini ifodash uchun qoʻllaniladi. Tilshunoslikda keng maʼnoda til birliklarining shakl va mazmun oʻzgarishi sifatida tushuniladi. Bu holat tilning fonetik, leksik-semantik va grammatik tuzilmasida kuzatiladi. Davrga bogʻliq ravishda yuz beradigan oʻzgarishlar tilning ichki tarkibiy transformatsiyasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillikdan oldin juda koʻp soʻzlar rus tilida faol qoʻllangan boʻlsa, mustaqillikdan keyingi davrda ularning oʻzbekcha muqobillari faollashib, tilning leksik tizimidagi transformatsiyalarni yuzaga chiqardi. Jumladan, *ministr-vazir*, *raport-maʼlumotnoma*, *student-talaba*, *xolodilnik-sovutgich*, *rayon-tuman* va boshq. Sintaktik transformatsiyalar deganda tilning sintaktik qurilishida roʻy beradigan oʻzgarishlar nazarda tutiladi. “Yaqin-yaqinlargacha *Berildi ushbu spravkani falonchiyevga shul haqdakim, haqiqatan ham*

bu o'rtoq shul joyda yashab turadi qabilidagi 20-yillarda rus tilidan andoza olish tufayli paydo bo'lgan, ya'ni shaklan o'zbekcha ma'lumotnomalar yozib kelindi.”¹ Mazkur jumla sintaktik jihatdan o'zbek tili tabiati va ifoda uslubiga zid bo'lgani bois, bu tarzda nusxa ko'chirish asosida tuzilgan sintaktik qurilmalardan voz kechilgan. Davr talabi va ehtiyojlariga ko'ra bunday o'zgarishlar ham lisoniy transformatsiyalar atamasi ostida o'rganilishi mumkin.

Shu o'rinda tilshunoslikda ma'lum bir tildagi ichki transformatsiyalar bilan bog'liq tadqiqotlarning grammatika sohasidan boshlanganligini qayd etish lozim. Uning asoschisi Noam Xomskiy (Noam Chomsky) hisoblanadi.² Noam Xomskiyning sintaktik transformatsiyalar haqidagi qarashlari uning tilshunoslik nazariyasida, xususan, *generativ grammatika* sohasidagi eng muhim konsepsiyalaridan biridir. Generativ grammatika tilning sintaktik tuzilishini modellashtirishga asoslangan nazariya bo'lib, u Noam Xomskiy tomonidan 1950-1960-yillarda ishlab chiqilgan. Generativ grammatika tilning universal xususiyatlarini, ya'ni barcha inson tillariga xos umumiy qoidalarni aniqlashga qaratilgan yirik nazariy konsepsiya hisoblanadi.

Xomskiy sintaktik transformatsiyalarni tilning sintaktik tuzilishini idrok etish va tavsiflash uchun asosiy vosita sifatida talqin qiladi. Olim 1957-yilda chop etilgan “Sintaktik tuzilmalar”³ kitobida sintaksisni tavsiflash uchun umumiy formal tizimni taklif qilgan edi. Uning nazariyasiga ko'ra, til inson ongida mavjud bo'lgan universal grammatik qoidalarga asoslanadi. Sintaktik transformatsiyalar tildagi tashqi tuzilma (*surface structure*) va ichki tuzilma (*deep structure*) o'rtasidagi bog'liqlikka asoslanadi. *Tashqi tuzilma* deganda sintaktik qurilmaning talaffuz qilinadigan yoki yoziladigan ko'rinishi, umuman shakliy belgilarining jami tushuniladi. *Ichki tuzilma* deyilganda sintaktik qurilmaning asosini ifodalovchi mazmun plani nazarda tutiladi. Masalan, “*Talabalar kitob o'qidilar*” va “*Kitob talabalar tomonidan o'qildi*” gaplari bir xil mazmuniy tuzilmaga ega, chunki har ikki qurilma ham bitta ma'noni ifodalaydi. *Tashqi tuzilma* turli nutq vaziyati, uslub va maqsad ehtiyoji bilan o'zgarib borishi mumkin. Transformatsiyalar *ichki tuzilmani tashqi tuzilmaga* aylantiradi. Xomskiyning fikricha, transformatsiyalar inson tilining universal xususiyatlariga asoslanadi. U tilni o'rganish qobiliyati inson ongida tug'ma ravishda mavjud deb hisoblaydi. Transformatsiyalar esa bu universal qoidalarning turli tillarda qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida gapdagi so'z tartibi (ega-ikkinchi darajali bo'laklar-kesim) boshqa tillardan farq qilishi mumkin, lekin ichki tuzilma universaldir. Noam Xomskiyning sintaktik transformatsiyalar haqidagi qarashlari tilning sintaktik tuzilishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning nazariyasiga ko'ra, transformatsiyalar ichki tuzilmadan tashqi tuzilmaga o'tish jarayonini tartibga soladi va inson tilining universal xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek tili misolida, bu transformatsiyalar so'z tartibi va gap turlarining almashinishida aniq ko'rinadi.

¹ Давлат тилида ш юритиш: амалий қўлланма / М. Аминов ва бошқ. - Т.: «О'zbekiston nashriyoti» Давлат унитар корхонаси, 2020. 10-6.

² Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. -Texas, -1958. -P. 124-158.

³ Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. -М., 1962. -Вып. 2. - С. 412-527.

L.L.Nelyubin o'zining "Tarjimashunoslik lug'ati" nomli kitobida transformatsiya so'zini tarjima jarayonidagi o'zgarishlar bilan bog'lab izohlaydi. Unga ko'ra, transformatsiya tarjima modelida tashqi tuzilmalarni yadro tuzilmalarga aylantirish jarayonidir. Bu tarjima vaqtida matnning bir tildan ikkinchi tilga o'tkazilishidagi semantik va sintaktik o'zgarishlarni tavsiflaydi, ya'ni matnning ma'nosini saqlagan holda uni boshqa tilda ifodalash uchun qayta shakllantirish usullarini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, L.L.Nelyubin transformatsiyani tarjima jarayonida ikki tilli vaziyat uchun muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi hamda tillararo leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalarning tarjima ekvivalentligiga erishish uchun asosiy amaliyot ekanligini qayd qiladi.⁴

Y.D.Apresyan transformatsiyani "muayyan qoidalar asosida bir iborani boshqa iboraga o'tkazish amaliyoti" deb ataydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, transformatsiya bir sintaktik strukturani boshqa bir sintaktik strukturaga o'zgartirish jarayonidir, bunda qurilmaning semantik asosi o'zgarmasdan qoladi. Bu jarayon Xomskiyning *generativ grammatika* nazariyasiga ham mos keladi.

Tilshunoslikda transformatsiya usuli analitik jarayonlarning alohida tizimi sifatida Z.Xerris tomonidan keng o'rganilgan. Z.Xerrisning "Discourse Analysis" deb nomlangan maqolasida⁵ transformatsiya usuli diskursdagi gaplarning formal va semantik ekvivalentligini aniqlash, ularni kanonik shaklga keltirish va matnning kogerentligini tahlil qilish uchun muhim vosita sifatida yoritilgan. U gaplar o'rtasidagi sintaktik transformatsiyalarni tahlil qilishda formal yondashuvni taklif etadi. Z.Xerrisning transformatsiya usuli diskursning strukturaviy tahlilida muhim yondashuv bo'lib, u tilshunoslikka oid ko'plab nazariyalarning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, lingvotransformatsiya til birliklarining bir shakldan boshqa shaklga o'tish jarayonini anglatadi. Badiiy tarjimada bu jarayon behad aniq namoyon bo'ladi. Bunda bir tildagi madaniy konseptlar boshqa tildagi shunday konseptlarga moslashtiriladi. Masalan, turk tilidagi "*Bize ayva piş ağzıma düş diye oturmak yakışmazdı*" gapi o'zbek tiliga "*Bizga olma pish og'imga tush deb o'tirish yarashmasdi*" tarzida tarjima qilinadi, bu madaniy konseptlarning lisoniy mosligini, gap tarkibidagi ibora mazmunining har ikki til uchun mushtarak ekanligini ko'rsatadi. Bunda sintaktik struktura saqlangan, faqatgina leksik transformatsiya ro'y bergan. Gapdagi frazeologik ibora tarkibida kelgan "ayva" so'zining o'zbekcha muqobili *behi* bo'lgani holda iborada "*olma*" so'zi qo'llanilgan. Bu mazmunning – ichki tuzilmaning anglanishiga monelik qilmaydi. Meva turining farqlanishi ikki tildagi olam manzarasi bilan bog'liq xususiy holatlar hisoblanadi.

Sintaktik strukturani muqobillashtirish ham tarjimondan mas'uliyat talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Masalan, "- *Marg'ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?..*" ("O'tgan kunlar") gapi turk tiliga "- *Mergilan'ı nasıl buldunuz, bey ağa? -dedi. - Beğendiniz mi yoksa...*" tarzida o'girilgan. Ko'rinadiki, o'zbek tilida bitta gapdek shakllantirilgan tuzilma turk tilida ikkita gap shaklida berilgan. Mazmun

⁴ Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. М.: Флинта: Наука, 2011. 230.

⁵ Xerris Z. Discourse Analysis. Language, Vol. 28, №1, 1952, -P.1–30.

asliyatdagidan farq qilmaydi, leksik tarkibi ham asliyatdagiga muqobil tanlangan. Biroq sintaktik strukturada turk tili tabiatiga mos transformatsiya kuzatiladi.

“- *Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?* Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi: - *Bundan xabarim bo‘lmasdi. Gumonimcha, bermagandir.*” (“O‘tgan kunlar”) Bu parcha esa quyidagicha o‘g‘irilgan: “- *Mirza Kerim Ağa kızını kocaya verdi mi işittiniz mi?* – diye sordu. Hamid, nedense bu soru karşısında çehresi gülerek ister istemez cevap verme durumunda kaldı: - *Haberim yok. Sanıyorum vermedi.*” Tarjimaga e’tibor berilsa, tarjimon “sintaktik muqobillik” an’anasiga sodiq qolgan. Biroq “*chehrasi buzilmoq*” iborasini “*çehresi gülerek*” (chehrasi kulib) tarzida tarjima qilish orqali tasvir mantig‘iga zid transformatsiyani amalga oshirgan. Buni oqlab bo‘lmaydi, albatta.

Badiiy tarjimada lingvotransformatsiyaning bir necha turi kuzatiladi. Eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Sintaktik va semantik struktura saqlangani holda uning leksik va morfemik tarkibi muqobillariga almashtiriladi. Bunda leksik va morfemik transformatsiya yuzaga keladi. “*Men o‘qituvchi+dan so‘ra+di+m*” gapi turk tiliga “*Ben öğretmen+e sor+du+m*” tarzida o‘g‘iriladi. Ko‘rinib turganidek, sintaktik va semantik struktura, Xomskiy ta’biri bilan aytganda, tashqi va ichki tuzilmalar aynan saqlangan. Biroq gapning leksik tarkibi o‘zgargan. Shuningdek, chiqish kelishigi qo‘shimchasi bilan shakllangan so‘z ham turk tili qonuniyatiga mos ravishda jo‘nalish (yönelme hal eki) kelishigi bilan tarjima qilingan. “*Bana öyle geliyor ki, gördüklerimi ve işittiklerimi yazmak, gelecek nesillere karşı en büyük vazifemdir.*” (“Saatleri Ayarlama Enstitüsü”) “*Menga shunday tuyuladiki, ko‘rgan-kechirganlarim va eshitganlarimni yozmoq kelgusi avlod oldidagi eng buyuk vazifamdir.*” Mazkur gap tarjimasidan ko‘ringanidek, “gelecek nesillere karşı” birikmasi o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqib “kelgusi avlod oldidagi” tarzida transformatsiya qilingan.

2. Semantik struktura saqlangani holda sintaktik, leksik va morfemik strukturada transformatsiya holati kuzatiladi. Bu qayta tartiblash yoki pozitsion transformatsiya deb ham ataladi. Ya’ni matndagi til birliklarining tartibi tarjima qilinayotgan til qonuniyatlariga yoki muayyan maqsadlarni ko‘zlagan holda qaytadan tartiblanishi tushuniladi. “*Darhaqiqat, mozoristonda “hayya alal falah” xitobini kim eshitar edi.*” (“O‘tgan kunlar”) Romandagi bu gap turk tiliga “*Gerçekten de benimkisi Müslüman mahallesinde salyangos satmaya benziyordu*” (Darhaqiqat, meniki musulmon mahallasida shilliqqurt sotishga o‘xshar edi) tarzida o‘g‘irilgan. Bunda gapning “ichki tuzilma”si saqlangan, lekin “tashqi tuzilma”sida jidday o‘zgarishlar yuz bergan.

3. Leksik transformatsiya. Bunda muayyan so‘zni sinonim, antonim yoki boshqa leksik birliklar bilan almashtirib qo‘llash tushuniladi. Tarjima asarlarda leksik transformatsiyadan keng foydalaniladi. “*Poyafzal bozori va uning burchagidagi havli...*” (“O‘tgan kunlar”) Mazkur gap turk tiliga tarjima qilinganda leksik transformatsiyaning bir ko‘rinishi o‘rtaga chiqqan: “*Yemeniciler çarşısı ve çarşı köşesindeki ev...*” Poyafzal bozori turk tilida “*Ayakkabı çarşısı*” tarzida o‘g‘irilsa ham bo‘lar edi, biroq “*Yemeniciler çarşısı*” tushunchasi turk kitobxonlari uchun yaxshiroq tanish hamda asar yozilgan davriga mos ta’bir hisoblanadi. O‘zbek tilidagi “*Qurbon hayiti*” tushunchasi diniy bayram, bayram bilan bog‘liq an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etsa ham uni “*Qurbon bayrami*” deyish ommalashmagan. Shu bois turk

tilidagi “Kurban Bayrami” tushunchasini tarjima qilishda “bayram” soʻzini “hayit” tarzida, uning sinonimi bilan berish maqsadga muvofiq sanaladi.

4. Sintaktik vazifasiga koʻra transformatsiya. Bunda soʻz va soʻz birikmalarining sintaktik vazifalarini oʻzgartirish amaliyoti nazarda tutiladi. Shuningdek, faol nutqni nofaol nutqqa aylantirish, oddiy jumlaning soʻroq jumlagacha, qoʻshma yoki murakab tuzilishga ega gaplarni soddaga aylantirish, bitta gapni ikkita gap tarzida ifodalash kabilar shu atama ostida umumlashtiriladi. *“Daha sonraki zamanlarda, enstitiümüz kurulmadan evvel işsizlikten evde çocukların mektep kitaplarına zaman zaman göz attığım gibi, bazen bütün günümü geçirdiğim Edirnekapı veya Şehzadebaşı kahvelerinde gazeteleri hatme mecbur kaldığım zamanlarda ufak tefek tefrika parçaları ve makaleleri de okudum”* (“Saatleri Ayarlama Enstitüsü”) *“Keyinroq, institutimiz tashkil qilinmasdan avval, bekorchilikdan uyda bolalarning maktab darsliklarini varaqlab vaqt oʻtkazardim. Baʼzida kun boʻyi Adirnaqapi yoxud Shahzodaboshi qahvaxonalarida gazeta titkilash bilan mashgʻul boʻlgan paytlarimda mayda-chuyda xabar va maqolalarni ham oʻqirdim.”* Turk tilida bitta sintaktik butunlik tarzida shallangan gap oʻzbek tilida ikkita gap shaklida transformatsiya qilingan. Bunday oʻzgarish perseptivlik tamoyiliga asosan amalga oshirilgan boʻlib, tarjimaning qulay tushunilishini taʼminlash maqsadi nazarda tutilgan.

5. Semantik va stilistik transformatsiyalar. Til birliklarining oʻzgartirilishi uchun mazmun va unga mos uslub asos hisoblanadi. Soʻz yoki ibora maʼnosining kontekstga qarab oʻzgarishi, masalan, bir tildagi dagʻal birliklar ikkinchi tilga nisbatan yumshoq yoki neytral birliklar orqali oʻgirilishi mumkin. Shuningdek, tarjima qilinayotgan birlikning asos tildagi stilistik boʻyogʻini ikkinchi tilda tugal berish maqsadi ham muhim sanaladi. Umuman olganda, semantik va stilistik transformatsiyalar deganda, asos tildagi mazmunni toʻlaligicha berish uchun ikkinchi tilda amalga oshirilgan transformatsion jarayonlar tushuniladi. *“Zavalı babam, bir türlü önüne geçemediği bu iftiraya üzülür, günlerce ağzını bıçak açmazdı.”* (“Saatleri Ayarlama Enstitüsü”) Bu gapni *“Bechora otam, hech qanaqasiga oldini ololmaydigan bu tuhmatdan xafa boʻlar, kunlab ogʻiz ochmay yuraverardi”* tarzida tarjima qilsa boʻladi, lekin mazmun va uslub ijobi uni quyidagicha transformatsiya qilish maʼqul sanaladi: *“Bechora dadam esa el ogʻziga elak tutolmay xunob boʻlardi. Xafa boʻlgan kezlari bir necha kun mobaynida hech kim bilan gaplashmay ich-etini yeb yuraverardilar.”* Bunda asliyatdagi semantik-stilistik izchillik va mantiqiy bogʻliqlik toʻla saqlangan.

Tahlil qilingan misollar va aytilgan fikrlarga tayanib aytish mumkinki, lingvotransformatsiya tilning statik emas, balki doimiy oʻzgarib turadigan tizim ekanini koʻrsatadi. Bu tilshunoslarga tilning tarixiy rivojlanishi, evolyusiyasi va zamon bilan moslashuvini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, lisoniy transformatsiya usullari tilning sintaktik va morfologik tuzilishidagi oʻzgarishlarni tadqiq qilish imkonini ham beradi. Bu esa tilning ichki qoidalari va ularning qanday oʻzgarib borishini, soʻz yoki gaplarning qanday qilib bir shakldan boshqa shaklga oʻtib borishini koʻrsatib beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvotransformatsiya tilshunoslik uchun tilning tarixiy, strukturaviy, semantik va pragmatik oʻzgarishlarini oʻrganishda muhim vositadir. U tilning dinamik tabiatini tushunish, tillararo taʼsirlarni tahlil qilish, til oʻqitish va zamonaviy texnologiyalarda tilni qayta ishlashda katta ahamiyatga ega soha

sanaladi. O'zbek tili misolida bu jarayon tilning madaniy va ijtimoiy muhitdagi moslashuvini, shuningdek, uning global kontekstdagi o'rnini ochib beradi hamda universal grammatika qoidalarini tasavvur qilishga yordam beradi.

Адабиётлар

Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. -Texas, -1958. - pp: 124-158.

Апресян Ю. Д. Трансформационный метод // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. - М.: Советская энциклопедия, 1990. - 685 с. - ИСБН 5-85270-031-2.

Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305 с., с. 187.

Касевич В. Б. Трансформационно-порождающая грамматика // Элементы общей лингвистики. - М.: Наука, 1977. - С. 101-113.

Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. М.: Флинта: Наука, 2011. 320 с. -С 230.

Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. - М., 1962. - Вып. II. - С. 412-527.

Щерба, Л.В. (1974). Языковая система и речевая деятельность. Москва: Наука.